

doimo o'zining nuqtayi nazarini, shaxsiy mulohazalarini bayon etadi va hayotiy tajribalari asosida umumlashma xulosalar chiqaradi. Adabiyotshunos N.Rahimjonov aytganidek, "Badealarga ... yaxlit estetik butunlik baxsh etuvchi narsa – bu san'atkor "men"i, san'atkor dunyoqarashidir"<sup>21</sup>. M.Empshteyn ta'kidlaganidek, "ushlab bo'lmas, chegaralari aniqmas" bo'lgan esse janrida fikr-tuyg'ularning erkin tarzda bayon etilishi essenavilar uchun qulaylik yaratadi. Xulosa qilib aytganda, esselarda muallif "men"i dunyoqarashi, tafakkuri, fikrlash tarzi, salohiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Muallif esseda tasvirlanyotgan voqea-hodisa haqida fikr yuritar ekan, o'z ko'nglida tug'ilgan his-hayajonni ham bemalol bayon etishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qo'chqorova M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari. –T.: Muharrir nashriyoti, 2011.5-bet
2. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2003. 18-aprel, 2020-yil 24-yanvar № 4 soni
3. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 4-jild: Esselar. – T.: Sharq, 2007. 36-bet.
4. Usnatdinov Sh. Kimga kesh, kimga ta'ni sahar ... – Nokis, Qaraqalpaqstan. 2002. 137-bet
5. Rahimjonov N. Ilmiy tafakkur jilolari. – T.: Fan,1991.

#### **O'ZBEK TILIDA NOMLASH MASALALARI**

##### **Kenjayev Farhod**

Nukus davlat pedagogika instituti Masofaviy ta'lim kefadrasasi o'qituvchisi

Asrlardan buyon yashnab, rivojlanib va yuksalib borayotgan ona tilimiz, adabiyotimiz va ayniqsa, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan o'zbek tili bugungi kunga

<sup>21</sup> Rahimjonov N. Ilmiy tafakkur jilolari.-T.: Fan,1991, 44-bet

kelib o'zining yanada rivojlanish, yuksalish cho'qqisiga tomon siljimoqda. Binobarin, zamon ham, ijtimoiy hayot ham harakatda. Zamonaviy texnika va texnologiyalar asrida ijtimoiy tarmoqlar "Telegram", "Whatsaph", "Imo", "Tik-Tok", "Facebook", "Zoom" barcha-barchasida o'zbek tilining sofligini saqlab qolish oson sih emas. Aks holda hamma joyni "OK"lar egallaydi. Kichkinagina mahsulotmi, kattami hammasiga nom qo'yishda e'tibor berish zarur. Chunki ularning dunyoga mashhur brend bo'lish ehtimoli bor. Masalan, "Artel" emas, "Chillachi" nomi ham mavjud. Tadbirkorlarimiz ham o'zbek tili chiroyli til ekanligini his qilishi zarur. "SAMSUNG" kompaniyasini bugun butun dunyo taniydi, Bu nom esa koreyslarga tegishli ekan. (Asoschisi Li Bying-chul kompaniyaning katta ahamiyat kasb etishiga ishongan. "Samsung" nomi ham aynan shu e'tiqodni o'zida aks ettirgan. Koreys tilida "Uch yulduz" ma'nosidagi brend nomi ushbu xalq madaniyatida katta, ulkan va qudratli kabi tushunchalar ramzi sanaladi) Xo'sh, bizda-chi? Aksariyat "ARTEL", "AKFA" "DELE", "MURAD BUILDINGS", "Lion", "Versal", "Las-Vegas", "Neo", "Merlion", "Dubay", "Flash", "Pizza Palermo", "La Prima", "Restoran Edison", "Primer Lounge" va h.k. Milliylikimizni ko'rsatib turadigan nomlar ham bor masalan: "Otabek va Kumush", "Tabassum". Lekin kam. Tiling muhim bo'lmasa ishing ham mavhumdir. Bugun bolalar qanday axborot olmda yashayapti, bu ularning ertasini belgilaydi. O'zbek nomlariga e'tibor bermasak u xoh inson ismi bo'lsin (hatto o'zbeklar o'z farzandlariga Ishani, Diana, Kishin ismlarini ma'nosini ham bilmay qo'ymoqda. Sababki, ularning seriallardan olgan axboroti), xoh biron narsaning nomi bo'lsin, tilimizda aks etadi. Tan olishimiz kerakki, tilimizning nutqimizda "da", "xorosho", "ok", "paka" "open"larning egallashiga faqat va faqat o'zimiz aybdormiz.

2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni,

2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli farmonlari tilimizga qaratilgan muhim e‘tiborni namoyon qiladi. Nomshunoslik masalasi nufuzli yig‘ilishlarning kun tartibida hamon dolzarb. 2020-yil 9-mart kuni Vazirlar Mahkamasida Bosh Vazir Abdulla Aripov raisligida ko‘cha va aholi punktlarini nomlash, peshlavhalar, reklama va e‘lonlarning davlat tilida berilishi singari masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. “Hurmatli hokimlar, endi shu joylarda yashaydigan odamlar, masalan, yoshlar o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring. Sizdan qishlog‘ingiz yoki ko‘changiz haqida so‘rab qolishsa, qanday javob bergan bo‘lardingiz? Cho‘rindi mahallasining Sirli tabassum ko‘chasidanman, Chivintepa qishlog‘ining Alam ko‘chasidanman deysizmi? Tilimizda bir-biridan chiroyli, ma‘nolari keng so‘zlar ko‘p-ku?! Qolaversa, har bir mahallaning tarixi, iqlimini aks ettiradigan nom qo‘yish mumkin edi-ku?! Og‘izga kelgan gapni vaysagandek, bo‘lar-bo‘lmas nomlar qo‘ygandan ko‘ra. Nahotki, ushbu mahallalarning shulardan boshqa maqtanadigan, ko‘z-ko‘z qilishga arziydigan jihati bo‘lmasa. Borligi shubhasiz! Buni o‘sha joy aholisidan so‘rasangiz qatorlashtirib aytib beradi”, – deya ta‘kidlagan Bosh vazir.

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan. Masalan, hunarmandchilik bilan shug‘ullangan mahallaga Hunarmandlar mahallasi, ko‘nchilik bilan shug‘ullangan mahallaga Ko‘nchilar mahallasi, zargarlik bilan shug‘ullangan mahallaga esa Zargarlik mahallasi deya nom berganlar, bu esa shu hududda yashovchilar qadimdan yaxshi hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo‘lganligini ko‘rsatib turadi. Holbuki, ajdodlarimiz o‘zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e‘tibor berishgan. Misol uchun, qadimiy shaharlarmizdan biri Xiva dargohlari, hatto, darvozalariga e‘tibor bering: “Ota

darvoza”, “Tosh Hovli”, “Oq masjid”, “Juma masjid” va h.k. E’tibor bersak, bugungi kunda qayta nomlanayotgan qishloqlar, ko’chalar, metrolar, bekatlar, xiyobonlar nomlarini bundan ellik-oltmish yil oldin o’zining mafkurasini singdirish maqsadida Sovet tizumi umuman yot nomlar bilan nomlagandi. Shukurki, Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy nomlari kelajakka eltuvchi ulug’ ildizlar ekanligini xalqimiz yaxshi anglaydi.

Demak, o’zbek xalqi qadim-qadimdan har bir narsaning nomlanishiga katta e’tibor bergan. O’zbek tilining taraqqiy topishi va yuksalishi uchun esa nafaqat nomshunoslikka balki, ijtimoiy sohalarga ham e’tibor berishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5850-son Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o’zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-6084-son Farmoni.

Internet tarmoqlari:

3. Terabayt.uz

4. Qadriyat.uz

5. Daryo.uz

#### **PISA TADQIQOTLARI ASOSIDA ONA TILI DARSLARIDA O’QUVCHILARNING NUTQIY MALAKALARINI O’STIRISH USULLARI**

**Yakupova Gulnora Yaxshigeldiyevna**

Ajiniyoz nomidagi NDPIning O’zbek tili va adabiyoti ta’lim

yo’nalishi 2- bosqich magistranti